

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

QURBONOV SARVAR NURITDINOVICH

**ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MA’MURIY NAZORATNI
TA’MINLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
(MA’MURIY-HUQUQIY JIHATLARI)**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Qurbonov Sarvar Nuritdinovich

Ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini takomillashtirish (ma'muriy-huquqiy jihatlari)..... 3

Курбанов Сарвар Нуритдинович

Совершенствование деятельности органов внутренних дел по обеспечению административного надзора (административно-правовые аспекты)..... 25

Kurbanov Sarvar Nuritdinovich

Improving the activity of providing administrative control of internal affairs bodies (administrative and legal aspects)..... 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

QURBONOV SARVAR NURITDINOVICH

**ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MA’MURIY NAZORATNI
TA’MINLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
(MA’MURIY-HUQUQIY JIHATLARI)**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Yu528 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti veb-sahifasi (www.mgjxu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ziyodullaev Muzaffar Ziyodullaevich**
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Saidgazieva Nilufar Sherzodovna**
yuridik fanlar doktori, dotsent

Xojiyev Erkin Tuygunovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Etakchi tashkilot: **Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 15-fevral kuni soat 14.30dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-82; e-mail: jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel./faks: (99871) 230-32-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “____” _____ dagi ____-raqamli reestr bayonnomasi).

M.X. Rustambaev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

N.I. Xayriyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

M.B. Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda retsidiv jinoyatlar profilaktikasini takomillashtirish, jumladan preventiv nazorat ostidagi shaxslarni axloqan tuzatish, ular tomonidan takroran huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlar va sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etish, ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida postpenitensiar ("post-prison") tizimni tubdan isloh etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shunga qaramasdan, Xitoy, Hindiston, AQSh va Indoneziya kabi davlatlarda retsidiv jinoyatchilik ko'rsatkichi jiddiy suratlarda oshmoqda. Masalan, "so'nggi 5 yilda AQShda takroran jinoyat sodir etish ko'rsatkichi 70 foiz bo'lib, shundan 62 foizi zo'rlik ishlatish bilan bog'liq jinoyatlardir"¹. Mazkur holat, dunyo hamjamiyati oldiga retsidiv jinoyatchilik profilaktikasining samarali tizimini ishlab chiqish hamda tatbiq etish zaruratini qo'yimoqda.

Jahonda jinoiy jazolarni ijro etish hamda ilgari sudlangan shaxslar ustidan preventiv nazorat tizimini takomillashtirish, jumladan, milliy qonunchilikka nazorat ostidagi shaxslarni axloqan tuzatish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bo'yicha xalqaro standartlar implementatsiyasini kuchaytirish, tizimga huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy vositalarini tatbiq etish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga nisbatan o'rnatilgan cheklovlarni buzganlik va belgilangan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun ma'muriy javobgarlikni differentsiatsiya qilish, mazkur qilmishlar uchun jazoni individuallashtirish, javobgarlik doirasidan chetda qolgan qilmishlar uchun javobgarlik belgilash orqali takroran jinoyat sodir etilishini oldini olish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha alohida yondashuvli "hudud metodikalari"ni yaratishga asoslangan "ijtimoiy profilaktika" tizimini joriy etishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda ma'muriy nazorat institutining imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, nazorat ostidagi shaxslarni axloqan tuzatishning yangicha ma'muriy-huquqiy vositalarini tatbiq etish, bu boradagi qonunchilikni zamon talablari asosida modernizatsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish va ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini samarali tashkil etish, ularga nisbatan tarbiyaviy va huquqiy ta'sir choralari qo'llashning samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni belgilangan tartibda ma'muriy nazoratga olish hamda ular bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratishni taqozo etadi.

¹ <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/recidivism-rates-by-country> (мурожаат вақти: 24.12.2023).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 121-son “2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari, shuningdek retsdiv jinoyatchilikni oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, shu jumladan ma’muriy nazorat institutining ilmiy-nazariy asoslari Q.R. Abdurasulova, X.R. Alimov, M.Z. Ziyodullaev, I. Ismailov, A.G. Zakirova, R. Kabulov, M.A. Rajabova, M.X. Rustambaev, A.S. Tursunov, A.A. Otajonov, S.M. Selimanova, E.T. Xojiev, J.S. Muxtorov, Dj.X. Yuldashev, S.B. Xujakulov, Q.A. Saitqulov, Sh.R. G‘ofurov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda ma’muriy nazorat instituti bilan bevosita aloqador masalalar bo‘yicha U. Tadjixanov tomonidan “Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan militsiyaning ma’muriy nazorati” mavzusida (1978-y.), M. Usmanaliev tomonidan “Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar tomonidan ma’muriy nazorat qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik” mavzusida (1983-y.), H.E. Axmedov tomonidan “Ma’muriy nazorat ostidagi shaxslarga oid profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish” mavzusida (2022-y.) nomzodlik va falsafa doktori dissertatsiyalari himoya qilingan.

MDH davlatlarida jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan o‘rnatiladigan ma’muriy nazoratni ta’minlash faoliyatiga doir masalalar yuzasidan M.I. Barnicheva, N.V. Malaxova, A.V. Martinov, Ye.V. Polikarpova, T.G. Ponyatovskaya, T.G. Ponyatovskaya, A.N. Smirnov, G.I. Tishenko, P.V. Teplyashin, A.P. Filchenko, O.V. Filimonova kabi olimlari ilmiy izlanishlar olib borgan¹.

Mamlakatimiz huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi islohotlar natijalarini, amaldagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini, xalqaro huquq me‘yorlari hamda xorij davlatlarining ilg‘or

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

tajribalarini inobatga olgan holda ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatining ma'muriy-huquqiy muammolari maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ichki ishlar organlarining boshqaruv, axborot-tahlil hamda hamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan o'rnatilgan ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ma'muriy nazoratning tushunchasi, turlari va huquqiy tavsifini ilmiy jihatdan tadqiq etish asosida ushbu institutning mohiyatini ochib berish;

ma'muriy nazorat institutining davlat majburlovi tizimidagi o'rni hamda rolini, shuningdek boshqa o'xshash institutlar bilan o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazoratni o'rnatish amaliyotini o'rganish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini tashkil etish borasida yuzaga kelayotgan muammolarni tadqiq etish hamda ularning yechimlariga qaratilgan tavsiyalar tayyorlash;

ma'muriy nazoratni huquqiy ta'minlash bo'yicha ilg'or xorij tajribalarini o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va milliy tizimga tatbiq etish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan taklif hamda tavsiyalarni shakllantirish;

ma'muriy nazorat qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni ta'minlash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolarni tadqiq etish asosida ularning yechimlariga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ektini ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan o'rnatilgan ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan o'rnatilgan ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatidagi muammolar, ushbu sohani tartibga soluvchi normalar va ularni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, ilmiy qarashlar va metodologik-uslubiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovi, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

profilaktik tadbirlar davomida jamoat joylarida shubhali harakatlar sodir etayotgan va ma'muriy nazorat ostidagi fuqarolarning shaxsini joyida tezkor tekshirish hamda aniqlash imkonini beruvchi "E-patrul" tizimini joriy etish zarurati asoslantirilgan;

ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan yakka tartibdagi profilaktik ishlarning video qayd etish vositalari bilan jihozlangan maxsus "suhbat xonalari"da o'tkazilishi tartibini yo'lga qo'yish zarurati asoslangan;

ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning ro'yxatdan o'tish uchun har oyda ichki ishlar organlariga kelish majburiyatini ta'minlashda ularning shaxsini tezkor hamda sifatli tekshirish va aniqlash imkonini beruvchi barmoq izlari orqali identifikatsiya qilish (tanib olish) tizimidan foydalanish amaliyotini joriy etish zarurati asoslantirilgan;

mahallalarni qizil toifadagi mahallalar ro'yxatiga kiritishda ularda istiqomat qiluvchi ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar salmog'ining kriminogen vaziyatga ta'sirini inobatga olish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

ma'muriy nazoratning tushunchasi va turlari tavsiflandi, boshqa o'xshash institutlar (profilaktik nazorat, profilaktik hisob) bilan o'zaro nisbati va mutanosibligi aniqlandi;

nazorat qoidalarini buzganlik ma'muriy javobgarlikni differentsiatsiya qilish, jazo choralarini individuallashtirish va javobgarlik doirasidan chetda qolgan qilmishlar uchun javobgarlik belgilash zarurati asoslandi;

ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga nisbatan o'rnatiladigan cheklovlar, shuningdek ularning zimmasiga yuklanadigan majburiyatlar doirasini va ularga rioya etilishini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ishlab chiqildi;

takroran sodir etilishi jinoyatni keltirib chiqaradigan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktik nazorat tizimini amaliyotga tatbiq etish zarurati asoslandi;

ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilishi va qabul qilinishi zarurati asoslantirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro va milliy qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyotining ilg'or hamda ijobiy tajribalari, sohaga doir besh yillik (2018–2022-yillar) empirik va statistik ma'lumotlar tahlili, 329 nafar mutaxassis xodimlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish orqali isbotlangan bo'lib, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, yetakchi xorijiy hamda milliy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar esa, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid nazariy-metodologik

qarashlarni boyitishda, ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi yangi qonunchilik normalarini ishlab chiqishda, sohaga tegishli qonunchilikni sharhlashda, shuningdek "Ma'muriy huquq", va "Ichki ishlar organlarining ma'muriy faoliyati" fanlarining ma'muriy (profilaktik) nazorat institutiga doir ilmiy-nazariy jihatlarini boyitishda, qolaversa, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borish hamda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatiga doir, xususan nazorat o'rnatish asoslari va tartibini, shuningdek ma'muriy cheklovlarga amal qilinishini tekshirish faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan o'rnatilgan ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

profilaktik tadbirlar davomida jamoat joylarida shubhali harakatlar sodir etayotgan va ma'muriy nazorat ostidagi fuqarolarning shaxsini joyida tezkor tekshirish hamda aniqlash imkonini beruvchi "E-patrul" tizimini joriy etishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-iyuldagi 399-son qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo'linmalari xodimlari tomonidan jamoat joylarida fuqarolarni elektron identifikatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 3, 4, 5-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash boshqarmasining 2023-yil 2-iyundagi 12-15-19-son ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarning inobatga olinishi ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga hamda tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga xizmat qilgan;

ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan yakka tartibdagi profilaktik ishlarning video qayd etish vositalari bilan jihozlangan maxsus "suhbat xonalari"da o'tkazilishi tartibini yo'lga qo'yishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2025-yillarda Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi"ning 88-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 10-dekabrda 15/49/7-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishining oldi olinishiga xizmat qilgan;

ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning ro'yxatdan o'tish uchun har oyda ichki ishlar organlariga kelish majburiyatini ta'minlashda ularning shaxsini tezkor hamda sifatli tekshirish va aniqlash imkonini beruvchi barmoq izlari orqali identifikatsiya qilish (tanib olish) tizimidan foydalanish amaliyotini joriy etishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2025-yillarda Jamoat xavfsizligini

ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi"ning 95-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 10-dekabrda 15/49/7-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarni identifikatsiya qilish amaliyotining soddalashtirilishiga hamda ularning ma'muriy cheklovlarga amal qilinishini nazorat qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

mahallalarni qizil toifadagi mahallalar ro'yxatiga kiritishda ularda istiqomat qiluvchi ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar salmog'ining kriminogen vaziyatga ta'sirini inobatga olishga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda PF-27-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar"ning yettinchi bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 10-dekabrda 15/49/7-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi retdiv jinoyatchilikning oldini olish samaradorligini oshirish asosida jamoat xavfsizligini ta'minlash amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta (shundan 2 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, olti paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 120 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzucining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzucining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ma'muriy nazorat**" institutining **ilmiy-nazariy asoslari tahlili**"ga bag'ishlangan. Unda ma'muriy nazorat tushunchasi, turlari va huquqiy tavsifi, shuningdek mazkur institutning davlat majburlovi tizimidagi o'rni tadqiq etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "*Ma'muriy nazorat tushunchasi, turlari va huquqiy tavsifi*" deb nomlangan bo'lib, unda muallif tomonidan ma'muriy nazorat tushunchasi va mohiyati, ma'muriy nazoratning turlari va o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

Dissertant ma'muriy nazorat tushunchasining mohiyatini "nazorat" va "kontrol" tushunchalari nisbatini, shuningdek "ma'muriy nazorat" hamda "profilaktik nazorat" institutlari o'rtasidagi tafovutni aniqlash asosida ochib berishga harakat qilgan.

Muallif Yu.S. Adushkin, D.N. Baxrax, I.U. Ismailov, A.Qurbonov, V.M. Manoxin, D.M. Mirazov, S.N. Nazarov, M.M. Naxapetyan, Yu.S. Pulatov, S.M. Rahmonova, G.B. Sanavvarov, A.M. Tarasov kabi huquqshunos olimlarning qarashlarini o'rganib, nazoratning quyidagi o'ziga xos jihatlari bilan kontroldan farqlanishi yuzasidan to'xtanga kelgan: 1) nazorat maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilib, ular kontrol qiluvchi organlardan farqli ravishda o'zlariga bo'ysunmaydigan sub'ektlar (tizimlar) faoliyatini tekshirish vakolatiga ega; 2) nazorat instituti predmetini asosan qonuniylik tashkil etsa, kontrol predmeti sifatida faoliyatning samaradorligi va maqsadga muvofiqligi tan olinadi; 3) nazorat funksiyasini amalga oshirish huquqbuzarlik sub'ektlariga nisbatan ma'muriy (jinoiy) huquqiy choralarni (intizomiy emas) qo'llashni nazarda tutadi.

Dissertatsiyada ma'muriy nazoratning keng va tor ma'noda tushunilish holatlari mavjudligiga alohida e'tibor qaratish lozimligi, uning asosiy xususiyatlari sifatida: 1) qonun hujjatlari talablarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ma'muriy faoliyatning muhim shakllaridan biri ekanligi; 2) huquqbuzarliklarni oldini olish va to'xtatish maqsadida amalga oshirilishi; 3) qonunchilik talablarini davlat majburlovi choralari vositasida ijtimoiy xavfli (zararli) qilmishlardan muhofaza etishi kabilar nazarda tutiladi.

Tadqiqotda H.E. Axmedov, M.I. Barnicheva, X.X. Baxramov, N.V. Malaxova, A.V. Martinov, J.S. Muxtorov, Ye.V. Polikarpova, K.N. Ubaydullaev, G'.S. Xamidov, E. Hojiev kabi huquqshunos olimlarning fikrlarini o'rganish asosida quyidagilar ma'muriy nazorat ob'ektlari ekanligi asoslantirilgan: 1) jamiyatda o'rnatilgan umummajburiy qoidalarga rioya etishi shart bo'lgan barcha toifa shaxslar; 2) muayyan faoliyat uchun litsenziya yoki ruxsatnoma olgan shaxslar; 3) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifadagi shaxslar. Shuningdek, ma'muriy nazoratni: *umumiy ma'muriy nazorat* va *maxsus ma'muriy nazorat* kabi ikki asosiy turga ajratish mumkinligi isbotlab berilgan. Bu o'rinda umummajburiy qoidalarga rioya etilishi ustidan o'rnatiladigan nazorat umumiy ma'muriy nazorat, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifadagi shaxslar ustidan o'rnatiladigan nazorat maxsus ma'muriy nazorat deb e'tirof etiladi.

Tadqiqot ishida huquq nazariyasiga ma'muriy nazorat tushunchasiga adekvat holda "profilaktik nazorat" tushunchasi ham kirib kelayotgani hamda uning o'rniga qo'llanilayotgani keltirilib, ushbu tushunchalar o'rtasidagi tafovut turli bahs va munozaralar uchun asos bo'layotgani qayd etilgan. Biroq dissertantning fikricha, mazkur kategoriyalar (institutlar)ning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, har ikki institut ham umumiy (yagona) maqsadni ya'ni, huquqbuzarliklar profilaktikasi (huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish)ni amalga oshirishga yo'naltirilgan;

ikkinchidan, profilaktik nazorat kengroq tushuncha bo‘lib, profilaktik hisobga olingan shaxslarni (shu jumladan, ma‘muriy nazorat ostidagi shaxslarni ham) nazorat qilishni nazarda tutadi;

uchinchidan, profilaktik nazoratni amalga oshiruvchi sub‘ektlar doirasi kengroq (huquqbuzarliklar profilaktikasining barcha maxsus sub‘ektlari) bo‘lsa, (maxsus) ma‘muriy nazorat ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi;

to‘rtinchidan, profilaktik nazorat huquqbuzarliklar profilaktikasi barcha sub‘ektlari (shu jumladan, sud) tomonidan o‘rnatilsa, ma‘muriy nazorat faqatgina sud qarori asosida o‘rnatilishi mumkin.

Muallif yuqorida keltirilgan jihatlarni, shuningdek ma‘muriy nazorat va profilaktik nazorat institutlarning umumiy maqsadga yo‘naltirilganligini hamda o‘xshashligini inobatga olib, ularni yagona shaklga keltirish hamda maqbullashtirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelgan. Bu borada ayniqsa, takroran sodir etilishi jinoyat tarkibini beruvchi (ma‘muriy preyuditsiyaga ega) ma‘muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarni profilaktik hisobga olish hamda ularga nisbatan profilaktik nazoratni amalga oshirish tizimini joriy etish zaruratini asoslantirgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Ma‘muriy nazorat institutining davlat majburlovi tizimidagi o‘rni*” deb nomlangan bo‘lib, dissertant unda ma‘muriy nazoratning ma‘muriy majburlov chorasi sifatidagi tavsifi, belgilari va xususiyatlari ochib berilgan.

Dissertantning fikricha, huquq nazariyasida mazkur institutning qaysi huquq tarmog‘ining predmeti ekanligi haqidagi masalani hal etishda yagona yondashuvda emas. Ushbu masala yuridik fanda bahs-munozara ob‘ekti sifatida haligacha saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim huquqshunos olimlar (X.X. Baxramov, N.T. Ismoilov, A.V. Martinov, T.G. Ponyatovskaya, F.Xidirov) mazkur institutni ma‘muriy majburlov vositasi deb qarashsa, ba‘zilari (T.M. Kalinina, O.V. Filimonova, A.P. Filchenko, T.G. Ponyatovskaya) jinoyat-huquqiy munosabatlar doirasida yuzaga kelishini qayd etadi. Shuningdek, boshqa bir guruh olimlar (B.V. Malinin) esa, ushbu institutning jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlarga aloqador ekanligini ta‘kidlab o‘tadi.

Muallif dissertatsiyada yuqoridagi olimlarning qarashlarini tahlil qilish asosida jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan o‘rnatiladigan ma‘muriy nazorat kompleks huquqiy institut bo‘lib, o‘z ichiga jinoyat, jinoyat-ijroiya va ma‘muriy-huquqiy elementlarni qamrab oladi degan xulosaga kelgan. Uning fikricha, ma‘muriy nazorat institutini tartibga solish predmeti ma‘muriy, jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunlari doirasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarga birdek daxldor hisoblanadi.

Tadqiqot ishida ma‘muriy nazoratning yuridik mazmuniga ko‘ra jinoiy jazo hisoblanuvchi ozodlikni cheklashga o‘xshash jihatlari mavjudligi ham keltirib o‘tilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 48¹-moddasiga ko‘ra, ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilingan shaxslarga qo‘llaniladigan beshta taqiq (cheklov)ning to‘rttasi (muayyan vaqtda yashash joyidan chiqishni taqiqlash, muayyan joylarda bo‘lishni taqiqlash, muayyan hudud doirasidan chiqishni

taqiqlash, alkogolli ichimliklar iste'mol qilishni taqiqlash) ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga ham qo'llanilishi qayd etilgan.

Shuningdek, ma'muriy nazoratning postpenitensiar chora ekanligi hamda faqatgina jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan ayrim toifa shaxslarga nisbatan o'rnatilishi, qolaversa quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan ozodlikni cheklashdan jiddiy farqlanishi asoslab berilgan: *birinchidan*, amalga oshirilayotgan faoliyatning maqsadi bo'yicha; *ikkinchidan*, faoliyatni amalga oshiruvchi sub'ektlar tizimi hamda ularning vakolatlari bo'yicha; *uchinchidan*, cheklov choralari qo'llanilayotgan shaxs huquqiy holati (maqomi)ning mazmuni bo'yicha; *to'rtinchidan*, huquqiy ta'sir choralari qo'llanish asoslari, tartibi, shartlari, ijrosini ta'minlash usullari, vositalari hamda qo'llash kafolatlari bo'yicha.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazoratni o'rnatish va ijrosini ta'minlashning bugungi holati**" tahliliga bag'ishlangan. Mazkur bobda ichki ishlar organlarining ma'muriy nazoratni ta'minlash sohasidagi faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar, ularning yuzaga kelish sabablari hamda yechimlari to'g'risida so'z yuritilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "*Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazoratni o'rnatish amaliyoti tahlili*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda ma'muriy nazorat o'rnatish asoslari va ma'muriy cheklovlarni qo'llash, shuningdek sudlar tomonidan nazorat o'rnatish amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar tadqiq etilgan.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish shartlari o'ziga xos bo'lib, ularni to'g'ri qo'llash faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi. Dissertatsiyada nazorat o'rnatish asoslari va shartlarini belgilovchi qonunchilik normalarida mavjud kolliziya va huquqiy bo'shliqlar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish zarurati asoslantirilgan.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarga nisbatan sudlanganlik muddati doirasida O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi O'RQ-532-son qonunida (bundan buyon matnda Qonun deb yuritiladi) nazorat o'rnatish sharti sifatida ushbu shaxslarning jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganidan keyin bir yil ichida ikki yoki undan ortiq ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganligi inobatga olinadi. Vaholanki, amaliyotda ilgari sudlangan, Qonun ta'siriga tushuvchi hamda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni sodir etayotgan (ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlangan) shaxslar toifasi ham mavjud bo'lib, ularga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatishga yuqoridagi Qonun normasi imkon bermaydi.

Muallif dissertatsiyada sotsiologik tadqiqotlar va amaliyot xodimlari fikrlarini o'rganish asosida tahlil qilinayotgan toifadagi shaxslarni ham nazorat o'rnatiladigan shaxslar doirasiga kiritish lozim degan xulosaga kelgan. Jumladan, anketa so'rovlarida ishtirok etgan mutaxassislarining 61,8 foizi – jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarning sudlanganlik muddati doirasida jinoyat sodir etib, ularga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq

bo'lmagan jazo tayinlanishi nazorat o'rnatilishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi zarurligi bo'yicha xulosaga kelgan.

Shuningdek, dissertant Qonunda ma'muriy nazorat o'rnatish sharti sifatida keltirilgan, ayb shaklidan (qasd yoki ehtiyotsizlikdan) qat'iy nazar har qanday ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun ma'muriy nazorat o'rnatishning asos qilib qo'yilganligini bahsli holat deb hisoblaydi. Chunki bu *bir tomondan*, nazorat o'rnatish asoslarining kengaytirib talqin etilishiga, *ikkinchi tarafdin*, shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga sabab bo'ladi. Shu bois, Belarus, Rossiya, Ukraina, Moldova, Qozog'iston davlatlari tajribasiga tayangan holda, bir yil ichida ikki yoki undan ortiq ma'muriy huquqbuzarliklarni *qasddan* sodir etganlik holatini ma'muriy nazorat o'rnatish sharti sifatida belgilash lozimligini asoslantirgan.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, milliy qonunchiligimizda O'zbekiston Respublikasining JKga binoan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat hisoblanadigan qilmishlarni sodir etganlik uchun boshqa davlat hududida ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tagan shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilishi mumkinligi qayd etilgan holda, mazkur nazoratni o'rnatish tartibi va shartlari amaldagi Qonunda (8-moddada) nazarda tutilmagan. Natijada ma'muriy nazorat o'rnatishning ushbu asosini qo'llash imkoniyati yo'qolmoqda.

Mazkur masalada amaliyot mutaxassislarining fikrlarini o'rganish maqsadida o'tkazilgan anketa so'rovida, ularga "*Sizningcha, chet elda og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyat sodir etib, jazo o'tab qaytgan shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatishga qaysi omillar to'sqinlik qilmoqda?*" degan savol bilan murojaat qilinganda, respondentlarning 74,9 foizi – Qonunda bunday shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish tartibining huquqiy mexanizmlari aniq belgilab berilmaganligini; 23,7 foizi – amaliyot xodimlarining aksariyati bunday shaxslarning nazorat o'rnatish mumkin bo'lgan shaxslar toifasiga kirishi haqida tasavvurga ega emasligini; yana 1,4 foizi – amaliyot xodimlarining shaxsiy tashabbus ko'rsatmasligini qayd etishgan. Muallif amaliyot natijalari tahliliga asoslanib, xorijiy mamlakat sudi tomonidan o'ta xavfli residivist deb topilgan shaxslarga nisbatan – jazoni o'tab qaytgach bir oy ichida hududiy ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga binoan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat hisoblanadigan qilmishlarni sodir etganlik uchun jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilganidan keyin bir yil ichida ikki yoki undan ko'proq ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun nazorat o'rnatish mexanizmlarini kiritish zaruratini isbotlab bergan.

Respublikamizda og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etgani uchun jazoni o'tayotgan shaxslar jazoning ma'lum bir qismini o'taganidan so'ng shartli ozod qilingan (JKning 73-moddasi tartibida), tayinlangan jazo yengilrog'i bilan almashtirilgan (JKning 74-moddasi tartibida) hollarda ularga nisbatan ma'muriy nazoratni o'rnatish masalalari ham bahsli bo'lib qolmoqda. Sababi, Qonunda bunday toifadagi shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatish masalasining qay tartibda hal etilishi mustahkamlab qo'yilmagan. Tadqiqotchi dissertatsiyada ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalarni ilgari surgan.

Dissertatsiyada bugungi kunda sudlar tomonidan nazorat ostidagi shaxslarga nisbatan ma'muriy cheklovlarni o'rnatishda tizimli va yagona yondashuvning mavjud emasligi, natijada ular tomonidan qonunni qo'llash jarayonida turli xato hamda kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi empirik materiallar bilan asoslab berilgan.

Jumladan, *“yashash joyidan sutkaning belgilangan vaqtida tashqarida bo'lishni taqiqlash”* tarzidagi ma'muriy cheklov vaqtining hajmi hamda davomiyligi qonunda belgilanmaganligi sudlar tomonidan o'z vakolatlaridan turlicha foydalanish imkonini yuza keltiradi. Shu bois, dissertant bu boradagi Moldova va Ukraina davlatlari tajribasi hamda shaxsning erkin harakatlanish huquqini sutkaning uchdan bir qismidan ko'p bo'lmagan muddatda cheklashga ruxsat etilishi mumkinligi haqidagi xalqaro standartlardagi qoidaga tayanib, sutka davomida sakkiz soatdan oshmaydigan cheklovni belgilash lozim, degan xulosaga kelgan.

Bugungi kunda sud qarorlaridagi *“muayyan joylarda bo'lishni taqiqlash”* tarzidagi cheklov turini qo'llashda ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning borishi taqiqlangan joylar ro'yxatining aniq belgilab berilmasligi asosiy muammolardan hisoblanadi. Yuridik jihatdan qaraladigan bo'lsa, mazkur cheklovda shaxs borishi man etilgan joylarni sharxlash imkoni yo'q. Bu esa, qonun normasining to'liq ishlamasligiga va nazorat ostidagi shaxs tomonidan cheklov turini buzish holatlarida turli vajlar keltirilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek nazorat organlari tomonidan bu turdagi cheklovni ijroga qaratish imkoni yo'qoladi.

Dissertatsiyada mazkur muammoning yechimi sifatida ushbu cheklov turini Qonunda *“muayyan jamoat joylarida bo'lishni taqiqlash”* tarzida bayon etish hamda sudlar tomonidan nazorat ostidagi shaxslar borishi mumkin bo'lmagan joylar ro'yxatining shakllantirilishi lozimligi ilgari surilgan.

“Sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan ichki ishlar organlarining ruxsatisiz chiqishni taqiqlash” tarzidagi cheklov turini qo'llashda jamoat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatlarining hisobga olinmasligi ham hal etilishi lozim bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

Qonunda ma'muriy cheklov turi sifatida sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan ichki ishlar organlarining ruxsatisiz chiqishni taqiqlash (7-modda) cheklovi qayd etilgan holda, mazkur cheklovni qanday doirada (viloyat doirasidami yoki tuman (shahar) qo'llash mumkinligi yoritilmagan. Bu o'rinda sudlar tomonidan mazkur cheklovning har ikki holatda qo'llash mumkinligi istisno etilmaydi hamda huquqni qo'llash amaliyotida bunday holatlar kuzatiladi. Bu esa, ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga viloyat hududidagi har qanday tuman-shaharlar doirasida erkin harakatlanishiga imkon yaratadi. Oqibatda esa, nazorat ostidagi shaxslar tomonidan doimiy yashash manzilidan boshqa hududlarda jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etilish hollari kuzatilmoqda.

Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi hamda huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalarini o'rganish asosida ushbu muammoli holatning yechimi sifatida yuqoridagi cheklov turini qonunchilikda *“tuman (shahar) hududidan ichki ishlar organlarining ruxsatisiz chiqishni taqiqlash”* tarzida bayon etish lozim, degan xulosaga kelingan. Muallif ushbu taklifning asosli ekanligini anketa so'rovida

respondentlarning 91,9 foizi tomonidan ma'qullanganligi bilan ham isbotlab bergan.

Ikkinchi bobning *“Ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini tashkil etish”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida ma'muriy nazoratni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari xususida so'z yuritilgan.

Dissertatsiyada jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazoratni ta'minlash faoliyatini tashkil etish sohasidagi muammo va kamchiliklar *sub'ektiv* va *ob'ektiv* omillar natijasida yuzaga kelayotganligi asoslantirilgan.

Tadqiqotda keltirilishicha, bugungi kunda ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar tomonidan ma'muriy cheklovlarga amal qilinishini tekshirish va nazorat qilish muhim masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda nazorat ostidagi shaxslarning har oyda bir martadan to'rt martagacha ichki ishlar organiga kelib, ro'yxatdan o'tganligi fakti idoraviy hujjatlar talablariga muvofiq profilaktika inspektori tomonidan qayd etish varaqasiga kiritilib boriladi. Biroq amaliyotda turli sabablar bilan (nazorat ostidagi shaxs kelganida qayd etish jurnalining yoki mas'ul xodimning bo'lmasligi va h.k.) nazorat ostidagi shaxsning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi ta'minlanmasdan qolib ketish holatlari uchramoqda.

Mazkur muammoning yechimi sifatida ma'muriy nazorat yig'ma jildida mavjud bo'lgan qayd etish varaqasiga imzo qo'ydirish tartibidan voz kechib, tuman (shahar) ichki ishlar organlari va mahalla huquq-tartibot maskanlariga yagona tizim qo'l-barmoq izlari bilan belgi qo'yuvchi elektron skayner moslamalari orqali ro'yxatdan o'tkazish tartibini yo'lga qo'yish taklif etilgan.

Huquqni qo'llash amaliyotida ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarning sog'ligining buzilishi bilan bog'liq holatlar yuzaga kelgan vaziyatlarda nazoratni ta'minlash bilan bog'liq muammolar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning surunkali kasalligi sababli muntazam shifoxonada davolanishi, tibbiy ko'rikdan o'tish uchun doimiy ravishda nazorat hududidan chiqishi lozimligi, shuningdek sog'ligini tiklash maqsadida uzoq muddatga sanatoriylarda davolanish ehtiyoji mavjudligini inobatga olganda ma'muriy nazorat qoidalariga rioya etilishini ta'minlash hamda nazoratni o'tash masalasi muammoligicha qolib ketmoqda.

Qonunda nazorat ostidagi shaxsning tibbiy yordam olishi yoki sog'liqni saqlash muassasalarida davolanishdan o'tishi zarur bo'lganda yashash joyidan tashqarida bo'lish va (yoki) sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan qisqa muddatga chiqish uchun bir oygacha bo'lgan muddatda ruxsat berilishi mumkin ekanligi belgilab qo'yilgan. Biroq mazkur muddat o'tsada, davolanish jarayonini davom ettirayotganligi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etish holatlari ham kuzatilib, sud tomonidan belgilangan cheklovlarga amal qilinishini ta'minlash imkoni yo'qolmoqda. Dissertant bunday holatlarni ma'muriy nazoratni to'xtatish asoslari qatoriga kiritish lozim, degan xulosaga kelgan hamda ushbu qoidalarni Qonun (9-moddasi ikkinchi qismi)ga kiritishni taklif etgan.

Tadqiqotda nazorat ostidagi shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlarni olib borishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash zarurati yuqoriligi asoslantirilgan. Bunda nazorat ostidagi shaxslarni elektron kuzatish vositalarining joriy etilishi, ichki ishlar organlari tizimida Elektron monitoring markazining tashkil etilishi lozimligi isbotlab berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazoratni ta'minlash samaradorligini oshirish yo'llari”** deb nomlangan bo'lib, unda ma'muriy nazoratni ta'minlash amaliyoti, uni huquqiy ta'minlash sohasida ilg'or tajribalarga ega ayrim davlatlar qonunchiligi qiyosiy tahlil qilingan hamda ma'muriy nazorat qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni ta'minlash muammolari tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Ma'muriy nazoratni huquqiy ta'minlash bo'yicha ilg'or xorij tajribalari tahlili”*ga bag'ishlangan bo'lib, unda Belarus, Qozog'iston, Moldova, Rossiya, Ukraina, davlatlari qonunchiligida mavjud bo'lgan huquqiy mexanizmlar o'rganilgan va ularni milliy tizimga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Jumladan, dissertant tomonidan quyidagi tajribalarni joriy etish zarurati ilmiy jihatdan isbotlangan:

alohida turdagi (voyaga yetmaganlarga nisbatan yoki ularning jinsiy erkinligiga qarshi qaratilgan, terrorizm va ekstremizm, shuningdek giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq) jinoyatlarni sodir etganlik ma'muriy nazorat o'rnatishning umumiy sharti sifatida belgilanishi lozim;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, jamiyatga ijtimoiy moslashmagan shaxslar tomonidan yil davomida ikki va undan ortiq marta sodir etilishi ma'muriy nazorat o'rnatish uchun asos bo'luvchi ma'muriy huquqbuzarliklar doirasini aniq belgilash, bunda MJtKning barcha normalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarni emas, balki ijtimoiy zarari yuqori hamda ijtimoiy xavfni yuzaga keltiruvchi (qasddan sodir etilgan) alohida turdagi qilmishlarni inobatga olish maqsadga muvofiq;

ilgari jazoni ijro etish muassasalaridan muddatidan ilgari sud qarori asosida shartli ravishda ozod etilgan, tayinlangan jazo yengilrog'i bilan almashtirilib, majburiy mehnatga jalb qilingan shaxslar tomonidan jazoning o'talmagan qismida yana qasddan jinoyat sodir etilishi ma'muriy nazoratni o'rnatish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi huquqiy normalarni mustahkamlash lozim;

ma'muriy nazorat ostidagi shaxslarga nisbatan o'rnatiladigan ma'muriy cheklovlar ro'yxatiga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar (ularning analoglari) yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishni taqiqlash tarzidagi cheklovni kiritish zarur.

Mazkur bobning *“Ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorat qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni ta'minlash faoliyatini takomillashtirish istiqbollari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorat qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni ta'minlash faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tadqiq etilgan.

Ma'muriy nazorat qoidalarini buzilishiga qarshi kurashishning eng muhim ma'muriy-huquqiy vositalaridan biri ma'muriy javobgarlikni ta'minlash hisoblanadi. So'nggi yillarda respublikamizda retsdiv (qayta) jinoyat sodir etish ko'rsatkichlarining ortib borayotganligi ham aynan ushbu omilga bog'liq. Dissertatsiyada ma'muriy nazorat qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar ko'rsatkichi ortayotganligi statistik ma'lumotlar tahlili bilan asoslantirib berilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi MJtKning 206-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etish ko'rsatkichi 2018-yilda – 3414 tani, 2019-yilda – 3972 tani, 2020-yilda – 5116 tani, 2021-yilda – 4819 tani, 2022-yilda – 5005 tani tashkil etgan. Ya'ni, so'nggi besh yil ichida sodir etilgan ushbu turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar ko'rsatkichi 46,6 foizga oshgan.

